

## **“MUSTAQIL TA'LIM ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLARGA CHET TILINI O'QITISHDA PSIXOLINGVISTIK TAMOYILLAR”**

*Samarqand Davlat Chet tillar instituti*

*2 bosqich tayanch doktoranti*

*Ne'matova Nigora Soliddin qizi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda bolalarga ingliz tili tez oson o'qitishning samarali metodlari haqida atroflicha yoritilgan. Psixolingvistika- alohida fan sohasi bo'lib odamning nutq faoliyatini tadqiq etadi. Metodikaning psixolingvistik aspekti ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchilarining nutq rivojlanishidagi xos xususiyatlarini o'rganadi. Ta'lim mazmunidan kelib chiqib mavzularga mos til materialini metodik tashkil etuvchi sotsiolingvistik aspektdan farqli o'laroq, psixolingvistik aspekt zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi uchun alohida ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o'qituvchi.*

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor

tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Psixolingvistik aspektlarining turli zamonaviy metodlarda qo'llanishidan biri savol-javob mashqlari hisoblanadi, ehtimol, u eng qadimgi bo'lib, universaldir - ular har qanday ko'nikmalarni shakllantirish uchun mos keladi va barcha ko'nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar to'plamiga kiritilgan. Bu ko'p funktsiyali mashqdir, chunki u materialni taqdim etish va tushuntirish bosqichida (muammo savollari), o'qitish uchun va nazorat vazifasi sifatida ishlatilishi mumkin. Bir tillilikdan tashqari, savol-javob mashqlarining katta afzalligi ularning muloqotning psixolingvistik tabiatiga muvofiqligi, o'zaro ta'sirning ushbu shaklining tabiiyligi va tanishligi, topshiriqning qiyinligini baholash imkoniyati va tashkil etishning qulayligidir. Savol-javob mashqlaridan foydalanishning tipik uslubiy kamchiliklariga savolning rasmiylashtirilganligi, umumiy savolga javob berishda o'quvchilarning aqliy faolligining pastligi, dars davomida faqat savol-javob ish shaklidan foydalanish kiradi.

Ta'lim tizimiga chetdan kirib kelgan termin "scaffolding" metodi bo'lib, u ingliz tilidan arxitektura va qurilish sohasida "iskala qurish" (iskala) "iskala qurilishi" deb tarjima qilinadi. Qurilish bilan ishora tasodifiy emas, chunki oddiydan murakkabga bosqichma-bosqich o'rganish sifatida "iskala" o'qitish metodikasining vizual tasvirini beradi. "Iskala" o'qitish usuli sifatida o'rganilayotgan materialni qismlarga bo'lish va har bir qismni asbob yoki algoritm tuzilishi bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, bu usulning teskarisi sifatida: o'qituvchi payshanba kuniga qadar yetti sahifali matnni o'qib, tarjima qilishni va ushbu mavzu bo'yicha insho yozishni so'raydi. Bu esa o'z navbatida bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini sundiradi. Scaffolding ya'ni iskala metodining maqsadi ham shundan iborat chet tilini o'rganish uchun motivatsiyani kamaytirmaslik uchun barcha topshiriqlarni bosqichma- bosqich o'quvchi bilan bajarish demakdir. Modellashtirish iskala poydevorining asosidir. Chet tilida o'z fikrlarini

shakllantirishga urinayotgan talabalarga: "Menga ko'rsata olasizmi?, Faqat menga ko'rsating" kabi savollar bilan o'rganuvchilarni so'zlanayotgan predmet yoki hodisa haqida visual ko'rinish paydo qiladi. Ovoz chiqarib o'ylash fikrlash jarayonini taqlid qilish imkonini beradi, masalan, matnni o'qiyotganda, o'qishni tushunish jarayonida o'qituvchi talabani gapni yana o'qishga taklif qilishi va kontekstdan uning ma'nosini taxmin qilishi mumkin. Bu o'qish jarayonini sekinlashtiradi, lekin chet tilini o'rgatishda juda samarali o'rganish modeli hisoblanadi. Bolaning kognitiv qobiliyatlari hali rivojlanayotganligini hisobga olsak, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish juda muhimdir. O'qituvchi talabalardan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'z tajribalari yoki g'oyalari bilan bo'lishi shlarini so'rashi bilan mavzuni bolaning o'z hayotiga bog'lashga harakat qiladi, shunda ular o'zlarini unga yaqin his qiladilar. Talabalarning oldingi bilim va tajribalaridan foydalanish, albatta, nafaqat "iskala" uchun, balki barcha o'qitish usullariga xosdir. Vigotskiyning kontseptsiyasi iskala bo'yicha ko'rsatma uchun juda muhimdir proksimal rivojlanish zonasi (ZPD). Proksimal rivojlanish zonasi - bu o'quvchining o'zi qila oladigan narsalar (bilim darajasi) va bilimdon tengdoshi yoki o'qituvchisi (pedagogik bosqich) ko'magi bilan erishish mumkin bo'lgan eng ko'p ma'lumot haqida so'z boradi. Vygotskiy, iskala amaliyotini qo'llash orqali bolani har qanday mavzuni proksimal rivojlanish zonasi orqali amalga oshirish orqali samarali o'rgatish mumkinligiga amin edi. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;

- multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Til bilgan — el biladi"

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *John Adams II Analysis of retirement age in different countries of the world.* London 2017.

2. —*Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)IXalq so'zi gazetasi.* 2012yil. 12-dekabr.

3. *J. Jalolov . —ingliz tilini o'qitish metodlaril —O'qituvchil nashiryoti Toshkent To'Xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T.*

4. *Гухмасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244.*

5. *Pratova, G. O., & To'Xtasinova, N. R. Q. (2022). O'ZBEK TILIDA FREZELOGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI.*